XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-167-3-46-K/25 Sharof Rashidov tumani

Sharof Rashidov tumani bo‘yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari bo‘yicha) soliq stavkalariga kamayuvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437, 445 va 452-moddalari, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-23-351-3-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda tuman soliq inpeksiyasining 2025-yil 10-dekabrdagi 47-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi qaroriga asosan Sharof Rashidov tumani uchun yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 6 9960,0 ming.so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 441,09 so‘m minimal miqdor belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman soliq inspeksiyasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari bo‘yicha) soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Tumanning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab 2026-yil uchun yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarining 1 gektariga belgilangan yer solig‘i stavkasiga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 1 kv.

metr uchun belgilangan yer solig‘i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va yer qa’ridan foydalanganlik uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari bo‘yicha) soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamayuvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar va soliq stavkalari 1, 2 va 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashlari yer solig‘i stavkalariga mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, ilovaga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Soliq kodeksining 445-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari suv solig‘i stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilashga haqli ekanligi (bundan Soliq kodeksining 445-moddasi birinchi qismining 2 va 3-bandlari, shuningdek ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilar mustasno) inobatga olinsin.

6. Soliq kodeksining 452-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli ekanligi inobatga olinsin.

7. Tuman soliq inspeksiyasi 2026-yil uchun ushbu qaror bilan tasdiqlangan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qaror “Jizzax tongi.uz” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Qaror 2026-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ASHUROV ASILBEK RAXMONOVICH**

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-167-3-46-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari. 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha. 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Bobur MFY	0.80	52 272 000.00	0.90	370.66
2	Bo‘ston MFY	0.95	62 073 000.00	1.00	411.84
3	G‘ozg‘ontepa MFY	0.93	60 766 200.00	0.90	370.66
4	Yoyilma MFY	0.80	52 272 000.00	0.90	370.66
5	Yoshlik MFY	0.90	58 806 000.00	1.00	411.84
6	Jizzaxlik MFY	1.10	71 874 000.00	1.20	494.21
7	Ziyokor MFY	1.10	71 874 000.00	1.20	494.21
8	Istiqlol MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
9	Qang‘li MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
10	Qatortol MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
11	Kattaqishloq MFY	1.00	65 340 000.00	0.75	308.88
12	Qaxramon MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
13	Qorayontoq MFY	0.80	52 272 000.00	0.90	370.66
14	Kuyovboshi MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
15	Qulpisar MFY	0.70	45 738 000.00	0.70	288.29

16	Ko‘rpasoy MFY	0.72	47 044 800.00	0.80	329.47
17	Qo‘shko‘prik MFY	1.10	71 874 000.00	1.20	494.21
18	Madaniyat MFY	0.80	52 272 000.00	0.70	288.29
19	Mo‘lkanlik MFY	1.00	65 340 000.00	1.20	494.21
20	Nonisangil MFY	0.80	52 272 000.00	0.80	329.47
21	Nurafshon MFY	0.85	55 539 000.00	0.90	370.66
22	Oqtosh ota MFY	0.75	49 005 000.00	0.80	329.47
23	Olmachi MFY	1.00	65 340 000.00	1.10	453.02
24	Pastki So‘loqli MFY	1.10	71 874 000.00	1.10	453.02
25	Rabot MFY	0.80	52 272 000.00	0.80	329.47
26	Ravalliq MFY	1.10	71 874 000.00	1.00	411.84
27	Samarqandquduq MFY	0.72	47 044 800.00	0.80	329.47
28	Saroylik MFY	1.10	71 874 000.00	1.20	494.21
29	Sovungarlik MFY	1.10	71 874 000.00	1.10	453.02
30	So‘g‘diyona MFY	1.04	67 953 600.00	1.00	411.84
31	Taraqqiyot MFY	0.90	58 806 000.00	0.90	370.66
32	Tinchlik MFY	0.80	52 272 000.00	0.90	370.66
33	Toqchiliq MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
34	Toshkentlik MFY	1.04	67 953 600.00	1.20	494.21
35	Tuyoqli MFY	1.04	67 953 600.00	0.80	329.47
36	Umar MFY	0.80	52 272 000.00	0.80	329.47
37	Uch tepa MFY	1.04	67 953 600.00	1.00	411.84
38	Fayzobod MFY	1.04	67 953 600.00	0.90	370.66
39	Xavastlik MFY	1.10	71 874 000.00	1.20	494.21
40	Xayrobod MFY	1.10	71 874 000.00	1.00	411.84
41	Xalqobod MFY	1.10	71 874 000.00	1.00	411.84
42	Sharilloq MFY	0.80	52 272 000.00	0.90	370.66
43	Eski Toshkentlik MFY	1.04	67 953 600.00	1.10	453.02
44	Yakkaqayrag‘och MFY	1.04	67 953 600.00	1.10	453.02

45	Yangi xayot MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
46	Yangi-Diyor MFY	1.00	65 340 000.00	1.00	411.84
47	Yangiobod MFY	0.93	60 766 200.00	0.90	370.66
48	Yaxtanlik MFY	1.04	67 953 600.00	1.10	453.02

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-167-3-46-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Shahar va tumanlar nomi**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar. shuningdek YaTTlar**		**Sanoat korxonalari**		**Avtotransport vositalarini yuvish**		**Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish.** *(pivo va vinodan tashqari)*	
		Yer usti	**Yer osti**	**Yer usti**	**Yer osti**	**Yer usti**	**Yer osti**	**Yer usti**	**Yer osti**
1.	Sharof Rashidov tumani	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-167-3-46-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh. xarsangtosh. ohaktosh-chig‘anoq. ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*. dolomitlar. qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar. bazalt. granodioritlar. granosienitlar. sienitlar. porfiritlar. diabaz-porfiritlar. gabbro. slanes jinslari. karbonat xom ashyosi. travertin	Tabiiy bezak-toshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi. gips va angidrid. ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi. lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi. qurilish qumi. Qumtoshlar)
1.	Sharof Rashidov tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25